XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-aprel VI-80-57-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Xorazm viloyati hududlarida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari miqdorini belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrda “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4845-sonli qarorining 4-bandi birinchi xatboshisida 2021-yil 1-yanvardan boshlab, hududlarda maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari (xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladigan alohida xizmatlar uchun toʻlovlar bundan mustasno) dastlab narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan maʼqullanganidan soʻng tasdiqlash belgilangan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustda “Koʻp kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-278-sonli qarorining 3-ilovasi 10-bandida 2023-yil 1-dekabrga qadar koʻp kvartirali uylarni boshqarish organlariga agrotexnik ishlov berishdan hosil boʻladigan chiqindilarni (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni toʻplash punktlariga yigʻishga ruxsat etilishi munosabati bilan qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmatlar uchun majburiy toʻlovlar tarifini qayta koʻrib chiqish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur qarorlarga asosan viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 10-avgustdagi 01-8-38/1041-sonli va 2023-yil 31-oktabrdagi 01-8-38/1444-sonli xulosalariga asosan amaldagi tarif miqdorini jismoniy shaxslarning agrotexnik ishlov berishdan hosil boʻlgan chiqindilarni (daraxt va buta shox-shox shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilar, qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlarini narx (tarif) QQS (qoʻshilgan qiymat soligʻi) siz Urganch shahri va Urganch tumani boʻyicha 5 250 soʻm, Xiva shahri va tumanlar boʻyicha 4 100 soʻm (bir kishi boshiga bir oyda) hamda yuridik shaxslarning agrotexnik ishlov berishdan hosil boʻlgan chiqindilarni (daraxt va buta shox-shox shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilar, qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari narx (tarif)lari 1 m^3 uchun QQS siz Urganch shahri va Urganch tumani boʻyicha 72 000 soʻm, Xiva shahri va tumanlar boʻyicha 45 000 soʻm miqdorida belgilanishi yuzasida xulosalar olingan.

“Chiqindilar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrda “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4845-sonli va 2023-yil 15-avgustda “Koʻp kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-278-sonli qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevralda “Chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 95-sonli qarori, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 10-avgustdagi 01-8-38/1041-sonli va 2023-yil 31-oktabrdagi 01-8-38/1444-sonli xulosalariga asoslanib, viloyat hududlaridan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi boshligʻi Gʻ.Eshchanovning viloyat hududlarida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari miqdorini belgilash toʻgʻrisidagi axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.
2. Xorazm viloyatining shahar (tuman)larida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil boʻladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari ilovaga asosan ma’qullansin.
3. Viloyat hokimining oʻrinbosari S.Bekchanov belgilangan tartibda shahar (tuman)larda maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari (narxlari) miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida viloyat hokimining qarori loyihasini ishlab chiqsin.
4. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi (Gʻ.Eshchanov), viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi (K.Tangriberdiyev), viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (M.Samandarov) shahar (tuman)lar hokimliklari bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.
5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 26-apreldagi
VI-80-57-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatining shahar (tuman)larida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil boʻladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm)**
Urganch shahar va Urganch tumanida			
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	5 880
Yuridik shaxslar uchun (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m^3	80 640
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan oʻz texnikalari yordamida markaziy chiqindi saqlash obyektiga qattiq maishiy chiqindilarni olib borib, joylashtirish	Maishiy chiqindilar	m^3	16 800
Xiva shahri va viloyatning boshqa tumanlarida			
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	4 592
Yuridik tashkilotlari uchun (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m^3	64 400
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan oʻz texnikalari yordamida markaziy chiqindi saqlash obyektiga qattiq maishiy chiqindilarni olib borib, joylashtirish	Maishiy chiqindilar	m^3	16 800